



**Tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)**




Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 161,8 mln. AQSh dollar bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,1 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 68,7 mln. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,1 %) va import hajmi 93,1 mln. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,5 %) ni tashkil qildi. Tashqi savdo saldosi minus 24,3 mln. AQSh dollari.


Asosiy tarkib, ulush



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




MDH davlatlari va boshqa xorijiy davlatlar, ulushlarda



UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo tovar aylanmasi **161,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 80,1 % ni tashkil etdi.

Viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida barcha shahar va tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Tashqi savdo aylanmasi tarkibiy qismlarida MDH davlari hissasiga **58,4 %** va boshqa xorijiy davlatlarning hissasiga **41,6 %** to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Viloyat tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri **24,0 %** ulush bilan **38,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat tashqi savdo aylanmasida eng quyi ulushni Yangibozor tumani **1,9 %** ulush bilan **3,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




Tashqi savdo aylanmasida eng yuqori hajm import hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **93,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **26,5** % ga kamaygan. Jami tashqi savdo aylanamasidagi ulushi esa **57,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,5 %), Urganch shahri (72,5 %), Urganch (67,8 %), Yangiariq (58,6 %) va Hazorasp (42,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida Tashqi savdo aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (92,0 %), Urganch tumani (77,8 %) va Gurlan tumanida (68,7 %) qayd etildi.

Tashqi savdo aylanmasining o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda





| | Jami, mln. AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Eksport, mln. AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda | Import, mln. AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------|-------------------------|---|----------------------------|---|---------------------------|---|
| Xorazm viloyati | 161,8 | 80,1 | 68,7 | 91,1 | 93,1 | 73,5 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Urganch | 38,9 | 92,0 | 10,7 | 76,6 | 28,2 | 99,6 |
| Xiva | 6,6 | 65,9 | 4,9 | 79,3 | 1,7 | 44,2 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Bog'ot | 9,6 | 39,5 | 7,2 | 107,9 | 2,4 | 13,6 |
| Gurlan | 6,2 | 68,7 | 3,7 | 81,3 | 2,5 | 55,9 |
| Qo'shko'pir | 5,3 | 62,8 | 3,6 | 82,1 | 1,7 | 41,7 |
| Urganch | 13,3 | 77,8 | 4,3 | 56,3 | 9,0 | 95,0 |
| Hazorasp | 10,2 | 46,5 | 5,8 | 173,5 | 4,4 | 23,5 |
| Tuproqqal'a | 28,1 | - | 0,1 | - | 28,0 | - |
| Xonqa | 12,0 | 61,2 | 7,8 | 157,5 | 4,2 | 28,8 |
| Xiva | 6,0 | 62,7 | 4,4 | 80,0 | 1,7 | 40,3 |
| Shovot | 10,2 | 55,5 | 5,9 | 57,7 | 4,3 | 52,8 |
| Yangiariq | 7,8 | 49,8 | 3,2 | 82,2 | 4,6 | 39,0 |
| Yangibozor | 3,0 | 57,7 | 2,6 | 70,0 | 0,4 | 28,1 |

HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANMAYDIGAN HAJMNI QO'SHGAN HOLDA



EKSPORT

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



IMPORT

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,9 %** ga kamaydi va **68,7 mln.** AQSh dollarini tashkil qildi. Bu esa umumiy Tashqi savdo hajmining **42,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Import hajmi **93,1 mln.** AQSh dollarni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **26,5 %** ga kamaydi. Bu esa umumiy Tashqi savdo hajmining **57,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Eksport




Tahliliy natijalarga ko'ra, Tashqi savdo aylanmasida eksport ko'rsatkichlari hududlar kesimida taqqoslanganda, Hazorasp (173,5 %), Xonqa (157,5 %), Bog'ot (107,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

import ko'rsatkichlarida esa hududlar kesimida taqqoslanganda, Urganch shahar (99,6 %), Urganch (95,0 %) va Gurlan (55,9 %) tumanlarida nisbatan yuqori bo'lgan.




Import



**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI VA
O'SISH (O'ZGARISH) SUR'ATLARI**

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi **86,6** ming AQSh dollar (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **21,2** % ga kamaydi). Barcha hududlarda aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Tuproqqal'a (531,1 ming AQSh dollar), Urganch shahri (270,1 ming AQSh dollar), Xiva shahri (71,5 ming AQSh dollar) va Yangiariq (67,5 ming AQSh dollar) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



| | Hajm, Ming AQSh dollar | 2019-yil yanvar-may oylariga aholi jon boshiga, % da |
|------------------------|------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 86,6 | 78,8 |
| shaharlar: | | |
| Urganch | 270,1 | 90,7 |
| Xiva | 71,5 | 64,9 |
| tumanlar: | | |
| Bog'ot | 58,7 | 38,8 |
| Gurlan | 41,7 | 67,7 |
| Qo'shko'pir | 30,9 | 61,7 |
| Urganch | 67,2 | 76,4 |
| Hazarasp | 52,1 | 45,7 |
| Tuproqqal'a | 531,1 | - |
| Xonqa | 64,8 | 60,2 |
| Xiva | 41,6 | 61,7 |
| Shovot | 60,0 | 54,6 |
| Yangiariq | 67,5 | 49,0 |
| Yangibozor | 34,9 | 56,7 |

2020-yil yanvar-may oylariga eksport tarkibida Paxta tolasi hajmi 3 832,2 ming AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 3 175,0 ming AQSh dollari) ni tashkil qilib, 657,2 ming AQSh dollariga, Kimyo mahsulotlari va buyumlari eksport hajmi 410,5 ming AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 279,3 ming AQSh dollari) ni tashkil qilib, 131,2 ming AQSh dollariga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.



| | JAMI | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-------------------|---|------------------------------|-------------------|---|------------------------------|-------------------|---|------------------------------|
| | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| Eksport | 68 745,7 | 91,1 | 100,0 | 51 803,2 | 84,6 | 100,0 | 16 942,5 | 119,3 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 3 832,2 | 120,7 | 5,6 | - | - | - | 3 832,2 | 127,2 | 22,6 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 16 838,7 | 35,0 | 24,5 | 14 624,2 | 33,6 | 28,2 | 2 214,5 | 48,3 | 13,1 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 410,5 | 147,0 | 0,6 | 410,5 | 2,7 m. | 0,8 | - | - | - |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 0,2 | - | - | 0,2 | - | - | - | - | - |
| Qora va rangli metallar | 781,5 | 300,6 m. | 1,1 | 781,5 | 300,6 m. | 1,5 | - | - | - |
| Mashina va asbob – uskunalar | 158,5 | 28,3 m. | 0,2 | 158,5 | 28,3 m. | 0,3 | - | - | - |
| Xizmatlar | 3 582,0 | 67,4 | 5,2 | 2 667,1 | 59,4 | 5,1 | 914,9 | 111,3 | 5,4 |
| Boshqalar | 43 142,1 | 2,4 m. | 62,8 | 33 161,2 | 2,7 m. | 64,1 | 9 980,9 | 182,5 | 58,9 |

IMPORT TARKIBI

2020-yil yanvar-may oylariga Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 32 678,0 ming AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 5 707,3 ming AQSh dollari) ni tashkil qilib, 26 970,7 ming AQSh dollariga, Kimyo mahsulotlari va buyumlari import hajmi 6 153,1 ming AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 5 748,0 ming AQSh dollari) ni tashkil qilib, 405,1 ming AQSh dollariga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.

| | JAMI | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-------------------|---|------------------------------|-------------------|---|------------------------------|-------------------|---|------------------------------|
| | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming AQSh dollari | 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| Import | 93 064,6 | 73,5 | 100,0 | 42 706,2 | 150,6 | 100,0 | 50 358,4 | 51,2 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 32 678,0 | 5,7 m. | 35,1 | 25 484,3 | 5,5 m. | 59,7 | 7 193,7 | 6,5 m. | 14,3 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 6 153,1 | 107,0 | 6,6 | 2 122,6 | 61,4 | 5,0 | 4 030,5 | 176,1 | 8,0 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 802,5 | 4,0 m. | 0,9 | 759,7 | 4,0 m. | 1,8 | 42,8 | 4,3 m. | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 2 183,3 | 92,2 | 2,3 | 477,0 | 51,4 | 1,1 | 1 706,3 | 118,5 | 3,4 |
| Mashina va asbob – uskunalar | 28 853,1 | 42,6 | 31,0 | 3 000,0 | 126,5 | 7,0 | 25 853,1 | 39,6 | 51,3 |
| Xizmatlar | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Boshqalar | 22 394,6 | 49,9 | 24,1 | 10 862,6 | 64,6 | 25,4 | 11 532,0 | 41,0 | 22,9 |




2020-yil yanvar-may oylariga Tashqi savdo aylanmasida Rossiya Federatsiyasi hajmi 50 686,5 ming AQSh dollar, Xitoy Xalq Respublikasi hajmi 24 911,2 ming AQSh dollar, Qirg'iziston Respublikasi hajmi 24 846,1 ming AQSh dollar, Turkiya hajmi 16 598,0 ming AQSh dollar, Qozog'iston hajmi 10 064,3 ming AQSh dollar, Turkmaniston hajmi 4 269,4 ming AQSh dollar, Koreya Respublikasi hajmi 3 235,8 ming AQSh dollar, Ukraina hajmi 2 765,1 ming AQSh dollar, Eron 2 002,2 ming AQSh dollar va Bangladesh hajmi 2 013,3 ming AQSh dollarni tashkil qilmoqda.



| Top-10 davlatlar | TSA ming AQSh. dollari | Eksport ming AQSh. dollari | Import ming AQSh. dollari | Ulush foizda |
|---------------------------|---------------------------|-------------------------------|------------------------------|-----------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 50 686,5 | 14 065,8 | 36 620,7 | 31,3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 24 911,2 | 3 419,6 | 21 491,6 | 15,4 |
| Qirg'iziston Respublikasi | 24 846,1 | 24 723,5 | 122,6 | 15,4 |
| Turkiya | 16 598,0 | 6 947,1 | 9 650,9 | 10,3 |
| Qozog'iston | 10 064,3 | 8 985,5 | 1 078,8 | 6,2 |
| Turkmaniston | 4 269,4 | 2 080,5 | 2 188,9 | 2,6 |
| Koreya Respublikasi | 3 235,8 | 200,2 | 3 035,6 | 2,0 |
| Ukraina | 2 765,1 | 883,7 | 1 881,4 | 1,7 |
| Eron | 2 002,2 | 1 208,1 | 794,1 | 1,2 |
| Bangladesh | 2 013,3 | 2 013,3 | - | 1,2 |

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDA YIRIK HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI, foizda**



2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatga 43 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Hindiston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 79,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 85,8 % ni tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09

